MA'RIFATPARVARLIK DAVRIDA INGLIZ ADABIYOTI

Dildora Tukhtaeva

Buxoro davlat pedagogika instituti ingliz tili o'qituvchisi

Dilshoda Amonova

Buxoro davlat Pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

KALIT SO'ZLAR

Kashfiyotlar,ma'rifatparvarlar,jaholat,feodalizm,aqlning kuchi,tafakkur,cherkov aqidalari,inqilob,kastalar tizimi,tabiiy tartib,kurashchan qahramonlar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ma'rifatparvarlik davrida ingliz adabiyotining o'ziga xos jihatlari hamda shu davrda ilgarei surilgan asosiy fikr va g'oyalarni yoritishga bag'ishlangan.Bundan tashqari maqolada o'sha davrda ijod etgan adabiyot vakillarining ishlari ham tahlil qilinadi.

Ma'rifatparvarlik davri ingliz adabiyotining to'rtinchi davri bo'lib,o'zining buyuk kashfiyotlari va yangiliklari bilan adabiyotning yuqori cho'qqisidan munosib o'rin egallagan davrlardan biri hisoblanadi.Bu davr XVII-XVIII asrlarda Yevropada vujudga kelgan va keyinchalik butun dunyoga yoyilgan. Ushbu oqim vakillari bilimga alohida ahamiyat beradilar, ular dunyoni aql-idrok bilan anglash mumkin, uni tafakkur bilan o'zgartirish lozim, deb hisoblaydilar. Bu oqim adabiyotning asosiy xususiyati xalqni jaholatdan, qoloqlikdan qutqarishga qaratilganligi, bilim olishga, ma'rifatga chaqirig'i bilan xarakterlanadi. O'z nomidan ko'rinib turganidek, bu davrda xalqni,umuman olganda butun jamiyatni

bilimli qilish masalasi asosiy o‘rinda turgan.

Ma’rifatparvarlik davrida aholining asosiy qatlamini savdogarlar tashkil etgan,ular o‘rta tabaqa vakillari hisoblangan.Ular xurofotdan nafratlanishgan va odatiy hayot tarzida yashashgan.

O‘rta sinf vakillari mafkuralariga ta’sir ko‘rsatgan o‘sha davr yozuvchi va faylasuflari davr nuqsonlari,shuningdek ko‘rinib turgan feodalizm sarqitlariga qarshi norozilik bildirishgan.Ular kapitalistik tizim bilan yuzaga kelgan ziddiyatlarni ko‘ra olishmagan.

Ma’rifatparvarlar xalqqa bilim berishni yorug‘likka chiqishga o‘xshatishgan.Ularning o‘ylashicha,bu orqali jamiyatning barcha yomon jihatlaridan xalos bo‘lish mumkin edi va ijtimoiy uyg‘unlik amalga oshiriladi.Ma’rifatparvarlar aqlning kuchiga ishonadi,shuning uchun bu davr tafakkur davri ham deb nomlanadi.

Keyinchalik bu harakat butun mintaqa bo‘ylab tarqaladi.

Bu harakatning turli xil jihatlari butun Yevropa bo‘ylab bir xil edi:

a)Feodalizmga va uning sarqitlariga nisbatan nafrat;ma’rifatparvarlar cherkov aqidalari va kastalar tizimidagi tafovutlarni inkor qildi;

b) Erkinlikka bo’lgan muhabbat,barcha uchun sistemali ta’lim tizimini yo’lga qo‘yish xohishi,insoniyatning ezgu xislatlari va tafakkuriga bo‘lgan kuchli ishonch;

c)Oddiy xalq,ayniqsa, dehqonlar taqdiri haqida qayg‘urish.

Ushbu umumiy xislatlardan tashqari ingliz ma’rifatparvarlari va fransuz ma’rifatparvarlari o‘rtasida farq bor edi.Fransuz ma’rifatchilari ingliz ma’rifatchilariga nisbatan rivojlangan edi: fransuz ma’rifatchilari siyosiy

yetakchilar edi va fransuz xalqini yaqinlashib kelayotgan inqilobga tayyorlagan keskin siyosiy ziddiyatlarni asosiy masala qilib qo‘ydi;holbuki,ingliz ma’rifatchilari hech qanday inqilobiy maqsadlarni ko‘zlamagandi,ingliz burjua inqilobi Angliyada ma’rifatchilikning tarqalishidan ancha vaqt ilgari tugagan edi.

Ma'rifatchilar mavjud ijtimoiy tuzumni mukammal emas deb biladilar, inson esa gunohkor banda ekanligini tan oladilar. Biroq ular inson aqliga ishonadilar. Ko‘pchilik ma'rifatchilar Xudoning mavjudligini inkor etmas edilar. Ularning fikricha, borliqni Xudo yaratgan, biroq endi insonga uni boshqarish erki berilgan. Shu sababli ular inson qudratiga, uning yaratuvchilik kuchiga katta baho berganlar.

Ushbu yo‘nalish vakillari aql va bilim bilan inson dunyoni yaxshilik tomon eltishga qodir, deb hisoblaydilar. Ular “ijtimoiylik” va “tabiiylik”, “tabiat” va “tamaddun” o'rtasida uyg‘unlikni vujudga keltirishga uringanlar. Shu sababli ham bu davr adabiyotida madaniyat va ma’rifatning moddiy asosini kuchaytirish yo‘lidagi sayohatlar, insonning tabiat bilan kurashi va g‘alabasi, inson tafakkurining sinovi kabi mavzular yetakchilik qiladi.

Shekspir davridan keyin paydo bo‘lgan ma’rifatchilik davri ham o‘zining ulkan yuksalishlari va turli xildagi yangicha g‘oyalari bilan ingliz adabiyoti tarixidan yuqori o‘rin egalladi.Xalq ongiga ushbu g‘oyalarni singdirish va ularni ma’rifatgachorlash buyuk yozuvchilarning asarlari va ulkan ishlari orqali amalga oshirildi.

Ma’rifatparvarlik davri badiiy madaniyatida davrning yagona uslubi,yagona badiiy tili mavjud emas edi.Shu bilan birga,unda turli xil stilistik shakllar mavjud edi:klassitsizm,sentimentalism,pre-romantizm va boshqa shu kabi

yo‘nalishlar.Ushbu davrda san’atning musiqa va adabiyot yo‘nalishi yetakchi o‘ringa chiqdi,teatrlarning roli oshdi.Janr ierxiyasida ko‘plab o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Mushtarak asosiy tamoyillarga ega bo‘lgan ma’rifatparvarlik harakati turli mamlakatlarda turlicha rivojlangan.Har bir mamlakatda ma’rifatparvarlikning rivoji siyosiy,ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar va milliylik xususiyatlariga bog‘liq edi.

Ma’rifatchilik davri nafaqat Yevropa madaniyati taraqqiyotidagi tarixiy davr,balki insonning asl tabiatiga mos keladigan “tabiiy tartib”ni bilishda aql va fanning hal qiluvchi roliga tayangan holda rivojlangan kuchli mafkuraviy oqimdir.

Ma’rifatparvarlik davrining muvaffaqiyatlari tarixiy bosqichga yana bir qudratli ijtimoiy kuch – burjua sinfining kirib kelishi tufayligina sodir bo’ldi.

Ma’rifatparvarlik davri Yevropaning ma’naviy taraqqiyotida katta burilish davri bo‘lib,hayotning deyarli barcha sohalariga ta’sir ko’rsatdi.

Ma’rifatparvarlik o‘zini ma’lum bir fikrlash doirasi,intellektual moyillik va afzalliklarda namoyon etdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek,ma’rifatparvarlik davrida adabiyot sohasi ham yuksak darajada rivoj topdi.

Ingliz yozuvchisi Daniel Defoning “Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari” asarida kimsasiz orolga tushib qolgan inson aqliy tafakkuri va mehnatiga tayanib taraqqiyot cho‘qqisiga erishadi,o‘limga mahkum qahramon hayotga bo’lgan cheksiz muhabbati va idrok kuchi bilan tabiat oldida bo‘yin egmaydi.Ayni paytda ma’rifatchilik adabiyotida kurashchan qahramonlarning ziddi bo’lgan obrazlar ham mavjud.Ular ko‘proq yevropalik bo‘lmagan qahramonlarning

ziddi bo‘lgan obrazlar ham mavjud.

Ma'rifatchilar klassitsizm adabiyotidagi shartlilik, sun’iylikka qarshi chiqadilar, bu oqim vakillaridan farqli o‘laroq oddiy kishilar hayotiga murojaat qiladilar, ularning kundalik tashvishlari va intilishlariga alohida e’tibor beradilar. Ingliz ma’rifatchiligidagi bu xususiyatlar Yevropa adabiyotiga ham ta’sir ko‘rsatdi.

Ma'rifatchilar jaholat, nodonlikni tanqid ostiga oladilar. Ingliz adibi J.Sviftning “Gulliverning sayohatlari” asarida hajv tig‘i yangi tijoratga asoslangan Angliyaning nodon hukmdorlariga qarshi qaratiladi. Ko‘plab asarlarda yovuzlik va ezgulik to‘g‘risidagi an’anaviy tushunchalardan chekiniladi, hayotiy, jonli obrazlar yaratiladi. Ma'rifatchilar tarbiya, bilimning ahamiyatiga alohida urg‘u berganlar, to‘g‘ri tarbiya yordamida o‘zlari orzu qilgan mukammal inson-halol, mehnatkash, bilimdon kishini yaratish mumkin, deb hisoblaganlar. Biroq shunga qaramasdan ushbu adabiyotda yaratilgan yorqin obrazlar ko‘proq ziddiyatli, murakkab shaxslar bo‘lib chiqdi. Masalan, ingliz yozuvchisi Samuel Richardsonning “Klarissa Garlo yoki yosh xonimning tarixi” asarining qahramoni Lovlas kabilar manfiy va musbat tomonlarning yig‘indisi, o‘ziga xos, takrorlanmas obrazlar bo‘lib qoldi. Ma’rifatchilik adabiyotining yana bir o‘ziga xos xususiyati oddiy kishilar, past tabaqa vakillari obraziga murojaat qilinishida ko‘zga tashlanadi.

Ma’rifatchilik davri adabiyotidagi novatorlik faqat yangi fikrda emas, yangi shaklda ham namoyon bo‘ldi. Ma’rifatchilar mavjud shakllarga yangi ko’rinish, yangi mazmun baxsh etdilar. Drama janri rivoji yangi bosqichga ko‘tarildi. Klassitsizm dramasining yuqori (tragediya) va quyi (komediya) janrga qo‘yadigan talablaridan chetga chiqildi, drama qahramonlari oddiy kishilar, mavzusi esa zamonaviyligi bilan xarakterlanadi.

Ma’rifatchilik davri adabiyotining asosiy janri - roman vujudga keldi. Ma’rifatchilik romani erkin janr bo‘lib, qat’iy talablarga bo'ysunmas, makon va zamonda chegaralanmagan, asosiy tasvir obyekti real voqelik va shaxslar edi.

Roman janri, ayniqsa, Angliyada muvaffaqiyat qozondi. J.Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, D.Defoning “Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari” romanlari ushbu janrning imkoniyatlarini namoyish qildi.

Adabiyotdagi ma’rifatchilik deb nom olgan bu bosqich nazariy-estetik jihatdan olg‘a tashlangan qadam bo‘ldi, badiiy nasrda yangi janrlar - tarbiyalovchi roman, maishiy roman, falsafiy qissa, hajviy epos kabilarni vujudga keltirdi, inson ruhiyati tahlilining yangi usullarini kashf qildi.